



TRENDS IN STRENGTHENING INTERSTATE DIALOGUE AND THE ROLE OF DIPLOMATIC INSTRUMENTS IN CENTRAL ASIA

Guzal Olimovna Sadiyeva

Independent Researcher, Associate Professor (PhD)

Academy of Public Administration under the President of the Republic of Uzbekistan

Tashkent State University of Oriental Studies

g.sadiyeva@gmail.com

Tashkent, Uzbekiston

ABOUT ARTICLE

Key words: Central Asia, regional integration, multi-vector policy, transport diplomacy, Consultative Meetings, “Central Asia – 2040”.

Abstract: This article analyzes geopolitical changes in the Central Asian region, new institutional forms of interstate dialogue, and the role of diplomatic instruments in ensuring regional stability. The study highlights current trends in regional integration processes, transport and logistics diplomacy, water and energy cooperation, as well as the development of dialogue with external actors within the “C5+” format.

Received: 04.02.26

Accepted: 05.02.26

Published: 06.02.26

MARKAZIY OSIYODA DAVLATLARARO MULOQOT VA DIPLOMATIK VOSITALARNING ROLINI KUCHAYTIRISH TENDENSIYALARI

Guzal Olimovna Sa’diyeva

Mustaqil tadqiqotchisi

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi

Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi dotsenti, (PhD)

Toshkent Davlat Sharqshunoslik universiteti

g.sadiyeva@gmail.com

Toshkent, O‘zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Markaziy Osiyo, mintaqaviy integratsiya, ko‘p vektorli siyosat, transport diplomatiyasi, Maslahat uchrashuvlari, “Markaziy Osiyo – 2040”.

Annotatsiya: Ushbu maqolada Markaziy Osiyo mintaqasidagi geosiyosiy o‘zgarishlar, davlatlararo muloqotning yangi institutsional shakllari va diplomatik vositalarning mintaqaviy barqarorlikni ta’minlashdagi o‘rni tahlil qilinadi. Tadqiqotda mintaqaviy integratsiya jarayonlari, transport-

logistika diplomatiyasi, suv-energetika hamkorligi hamda tashqi aktorlar bilan “S5+” formatidagi muloqotlarning rivojlanish tendensiyalari yoritib berilgan.

ТЕНДЕНЦИИ УСИЛЕНИЯ МЕЖГОСУДАРСТВЕННОГО ДИАЛОГА И РОЛИ ДИПЛОМАТИЧЕСКИХ ИНСТРУМЕНТОВ В ЦЕНТРАЛЬНОЙ АЗИИ

Гузал Олимовна Садиева

Независимый исследователь

Доцент (PhD) Академии государственного управления при

Президенте Республики Узбекистан

Ташкентского государственного университета востоковедения

g.sadieva@gmail.com

Ташкент, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова:	Аннотация:
Центральная Азия, региональная интеграция, многовекторная политика, транспортная дипломатия, Консультативные встречи, «Центральная Азия – 2040».	В статье анализируются геополитические изменения в регионе Центральной Азии, новые институциональные формы межгосударственного диалога, а также роль дипломатических инструментов в обеспечении региональной стабильности. В исследовании освещаются тенденции развития процессов региональной интеграции, транспортно-логистической дипломатии, водно-энергетического сотрудничества, а также диалога с внешними акторами в формате «C5+».

Kirish. So‘nggi yillarda Markaziy Osiyo mintaqasi o‘zining geosiyosiy va geoiqtisodiy ahamiyatini qayta kashf etmoqda. Agar 2010-yillarning boshlarida ayrim ekspertlar mintaqani noaniqlik va inqirozli tendensiyalar kutayotganini bashorat qilgan bo‘lsalar, bugungi kunda vaziyat tubdan o‘zgardi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning tashabbuskor tashqi siyosati va mintaqa davlatlari rahbarlarining siyosiy irodasi tufayli Markaziy Osiyo “ishonch va yaxshi qo‘shnichilik hududi”ga aylanmoqda. Bugungi kunda mintaqa davlatlari nafaqat ichki muammolarni hal qilish, balki global kuchlar raqobati sharoitida o‘z suverenitetini mustahkamlash uchun ham diplomatik vositalardan samarali foydalanmoqdalar.

Bunday ijobiy o‘zgarishlar, avvalo, mintaqada davlatlararo muloqotning sifat jihatdan yangi bosqichga ko‘tarilgani bilan izohlanadi. Markaziy Osiyo davlatlari o‘rtasida yuqori darajadagi rasmiy tashriflar, muntazam siyosiy maslahatlashuvlar va ko‘p tomonlama uchrashuvlar institutsional tus ola boshladi. Ayniqsa, davlat rahbarlari darajasida o‘tkazilayotgan Maslahat uchrashuvlari mintaqa uchun moslashuvchan, ishonchga asoslangan diplomatik platforma sifatida

shakllanib, ilgari yechimsiz deb qaralgan masalalarni ochiq va konstruktiv muhokama qilish imkonini yaratdi.

Shu bilan birga, diplomatik vositalarning kengayishi faqat rasmiy siyosiy muloqot bilan cheklanib qolmayapti. Iqtisodiy diplomatiya, transport va energetika sohalaridagi kelishuvlar, gumanitar va madaniy almashuvlar davlatlararo ishonchni mustahkamlovchi muhim omilga aylanmoqda. Qo'shma infratuzilmaviy loyihalar, chegaraoldi hamkorligi va savdo rejimlarini soddalashtirish kabi tashabbuslar diplomatiyaning amaliy natijadorligini oshirib, uni mintaqaviy barqarorlikni ta'minlash vositasiga aylantirmoqda.

Nihoyat, Markaziy Osiyoda diplomatik faollikning kuchayishi mintaqaning xalqaro munosabatlardagi o'rniga ham bevosita ta'sir ko'rsatmoqda. Agar avval mintaq tashqi aktorlar siyosatiga moslashuvchi makon sifatida qabul qilingan bo'lsa, hozirgi bosqichda u o'z manfaatlarini ilgari sura oladigan, muvofiqlashtirilgan pozitsiyaga ega mintaqaviy subyekt sifatida namoyon bo'lmoqda. Bu esa davlatlararo muloqot va diplomatik vositalarning rolini yanada kuchaytirishni Markaziy Osiyo taraqqiyotining strategik shartiga aylantiradi.

Asosiy qism. Mustaqillikning dastlabki yillarida mintaqaviy integratsiyaga to'sqinlik qilgan asosiy omillardan biri davlat rahbarlari o'rtasidagi qarashlarning xilma-xilligi va mintaqaviy yetakchilik uchun raqobat edi. Xususan, Qozog'iston va O'zbekistonning birinchi prezidentlari o'rtasidagi yondashuvlardagi farqlar integratsiya jarayonlarini sekinlashtirgan edi.

Ammo 2016 yildan boshlab vaziyat o'zgardi. O'zbekistonning yangi tashqi siyosati qo'shnilar bilan "muammosiz munosabatlar" tamoyiliga asoslandi va bu mintaqaviy hamkorlikni jonlantirdi. Ushbu jarayonning eng muhim natijasi Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari mexanizmining yo'lga qo'yilishi bo'ldi.

Bu tashabbus mintaqada davlatlararo muloqotni sifat jihatdan yangi bosqichga olib chiqdi. Maslahat uchrashuvlari qat'iy institutsional majburiyatlarga asoslanmagan bo'lsa-da, davlat rahbarlari o'rtasida to'g'ridan-to'g'ri va ochiq muloqotni ta'minlaydigan samarali diplomatik maydonga aylandi. Eng muhimi, ushbu format mintaqada ishonchni tiklash, ilgari hal etilmay kelgan masalalarni siyosiy iroda va o'zaro hurmat asosida muhokama qilish imkonini yaratdi.

Shu bilan birga, Maslahat uchrashuvlari mintaqaviy kun tartibini tashqi ta'sirlardan xoli holda, aynan mintaq davlatlarining o'zlari tomonidan shakllantirishga xizmat qilmoqda. Transport-kommunikatsiya yo'laklari, savdo-iqtisodiy aloqalar, suv-energetika masalalari va xavfsizlik sohasidagi umumiy muammolar ushbu format doirasida tizimli muhokama qilina boshladi. Bu esa Markaziy Osiyoda muvofiqlashtirilgan yondashuvlar va umumiy pozitsiyalarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Natijada, maslahat uchrashuvlari mexanizmi mintaqada "yangi mintaqaviylik" g'oyasining amaliy ifodasi sifatida namoyon bo'lmoqda. U davlatlar suverenitetini cheklamaydi, aksincha,

o‘zaro ishonch va hamkorlik orqali uni mustahkamlaydi. Bunday yondashuv Markaziy Osiyoning xalqaro munosabatlarda passiv makon emas, balki o‘z taqdirini o‘zi belgilay oladigan faol mintaqaviy subyekt sifatida shakllanishiga xizmat qilmoqda.

2024 yil avgust oyida Ostonada bo‘lib o‘tgan sammitda “Markaziy Osiyo – 2040” mintaqaviy hamkorlikni rivojlantirish konsepsiyasining qabul qilinishi mintaqa davlatlarining yaqinlashuv jarayoni ortga qaytmas tus olganidan dalolat beradi. Ushbu hujjat mintaqaviy xavfsizlik va barqarorlikni ta’minlashda Markaziy Osiyo davlatlarining markaziy rolini belgilab berishga qaratilgan.

Dengizga chiqish yo‘lining yo‘qligi (landlocked) Markaziy Osiyo uchun tarixiy muammo bo‘lib kelgan. Biroq, bugungi kunda mintaqa davlatlari ushbu kamchilikni imkoniyatga aylantirish uchun faol transport diplomatiyasini olib bormoqda. Xitoyning “Bir makon, bir yo‘l” tashabbusi va Yevropa Ittifoqining “Global Gateway” loyihalari doirasida Markaziy Osiyo sharq va g‘arbni bog‘lovchi ko‘prik vazifasini o‘tamoqda.

Xususan, Rossiyaga qarshi sanksiyalar va geosiyosiy taranglik sharoitida “O‘rta yo‘lak” (Transkaspiy xalqaro transport yo‘nalishi)ning ahamiyati ortib bormoqda. Qozog‘iston, O‘zbekiston va mintaqaning boshqa davlatlari Xitoydan Yevropaga yuk tashish vaqtini qisqartirish va muqobil yo‘llarni rivojlantirish uchun infratuzilmaviy loyihalarni amalga oshirmoqda. Shuningdek, “Termiz – Mozori – Sharif – Kobul – Peshovar” temir yo‘li loyihasi mintaqani Janubiy Osiyo bozorlari va Hind okeani portlari bilan bog‘lashda strategik ahamiyatga ega.

Sovet ittifoqi parchalangandan so‘ng, suv va energetika resurslarini taqsimlash masalasi mintaqada jiddiy kelishmovchiliklarga sabab bo‘lgan edi. “Yuqori oqim” (Qirg‘iziston, Tojikiston) va “quyi oqim” (O‘zbekiston, Qozog‘iston, Turkmaniston) davlatlari o‘rtasidagi manfaatlar to‘qnashuvi integratsiyaga to‘sqinlik qilgan.

Bugungi kunda esa suv-energetika masalalarida hamkorlik ruhi ustunlik qilmoqda. O‘zbekistonning Qirg‘izistondagi “Qambarota-1” va Tojikistondagi “Rog‘un” GESlari qurilishida ishtirok etishga tayyorligi, bu loyihalarga qarshilik ko‘rsatishdan voz kechishi mintaqadagi ishonch muhitini mustahkamladi. Shuningdek, “yashil energetika”ni rivojlantirish va iqlim o‘zgarishiga moslashish bo‘yicha mintaqaviy sa’y-harakatlar birlashtirilmoqda.

Bu tendensiya suv-energetika sohasidagi hamkorlikni faqat texnik yoki iqtisodiy masala doirasidan chiqarib, uni strategik ishonchni shakllantiruvchi diplomatik vositaga aylantirmoqda. O‘zaro loyihalarda ishtirok etish orqali davlatlar bir-birining uzoq muddatli manfaatlarini inobatga olishga, resurslardan foydalanishda ochiqlik va mas’uliyat tamoyillarini qaror toptirishga intilmoqda. Bu esa ilgari mintaqada kuzatilgan qarama-qarshiliklar o‘rnini pragmatik muloqot va kelishuvlar egallayotganini ko‘rsatadi.

Shu bilan birga, suv-energetika hamkorligi “yashil kun tartibi” bilan uygʻunlashib, mintaqaviy rivojlanishning yangi nuqtasini belgilab bermoqda. Qayta tiklanuvchi energiya manbalari boʻyicha qoʻshma loyihalar, energiya samaradorligini oshirish va uglerod chiqindilarini qisqartirishga qaratilgan tashabbuslar davlatlar oʻrtasida uzoq muddatli oʻzaro bogʻliqlikni kuchaytirmoqda. Bu jarayon nafaqat iqtisodiy foyda keltiradi, balki ekologik xavfsizlik va aholi turmush sifatini yaxshilashga ham xizmat qiladi.

Nihoyat, mazkur hamkorlik modeli mintaqada diplomatik madaniyatning oʻzgarib borayotganini namoyon etadi. Suv va energiya kabi sezgir masalalarni muzokaralar, ishonch choralari va qoʻshma rejalashtirish orqali hal qilish tajribasi Markaziy Osiyoda davlatlararo muloqotning samaradorligini oshirmoqda. Bu esa mintaqaning barqaror taraqqiyotini taʼminlashda diplomatik vositalarning hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini yana bir bor tasdiqlaydi.

Markaziy Osiyo davlatlari anʼanaviy ravishda Rossiya, Xitoy va AQSH/YEI (Gʻarb) oʻrtasida muvozanatni saqlashga qaratilgan koʻp vektorli siyosatni amalga oshirib kelgan. Biroq soʻnggi yillarda mintaqada davlatlari anʼanaviy aktorlardan tashqari, Turkiya, Koʻrfaz arab davlatlari (GCC), Ozarbayjon, Hindiston va Pokiston kabi “oʻrta derjavalalar” bilan hamkorlikni kuchaytirmoqda. Tadqiqotchilar ushbu yangi hamkorlik yoʻnalishini “toʻrtinchi vektor” sifatida baholamoqdalar.

Bundan tashqari, mintaqada davlatlari tashqi bosimlarga qarshi “yumshoq mintaqaviy rezistentlik” (soft regional resistance) strategiyasini qoʻllamoqdalar. Bu strategiya tashqi tashabbuslarni toʻgʻridan-toʻgʻri rad etmasdan, ularni milliy manfaatlariga moslashtirish va strategik avtonomiyani saqlab qolishni nazarda tutadi. “S5+1” (AQSH), “Markaziy Osiyo – Xitoy”, “Markaziy Osiyo – YEI” kabi muloqot formatlarining faollashuvi mintaqaning xalqaro maydondagi subyektivligini oshirmoqda.

Markaziy Osiyoda davlatlararo muloqot va diplomatik vositalarning roli sezilarli darajada kuchaydi. Mintaqada davlatlari izolyatsiya va raqobatdan voz kechib, pragmatik hamkorlik va integratsiya yoʻlini tanladilar. Shundan kelib chiqib aytish mumkinki, mintaqaviy institutlarning (Maslahat uchrashuvlari) shakllanishi siyosiy muloqotni tizimli asosga oʻtkazdi;

transport va energetika diplomatiyasi mintaqaning iqtisodiy salohiyatini oshirish va dengizga chiqish yoʻllarini diversifikatsiya qilishda hal qiluvchi omilga aylandi;

tashqi siyosatda yangi hamkorlarning jalb etilishi va “yumshoq rezistentlik” strategiyasi global geosiyosiy turbulentslik sharoitida mintaqada barqarorligini taʼminlashga xizmat qilmoqda.

Kelajakda “Markaziy Osiyo – 2040” konsepsiyasining amalga oshirilishi mintaqani global iqtisodiy va siyosiy jarayonlarning muhim ishtirokchisiga aylantirishi kutilmoqda.

Markaziy Osiyoda davlatlararo muloqot va diplomatik vositalarning samaradorligini oshirish mintaqaning barqaror taraqqiyoti va geosiyosiy subyektivligini mustahkamlashning hal

qiluvchi sharti hisoblanadi. Ushbu maqsadga erishish uchun quyidagi ilmiy asoslangan takliflarni ilgari surish maqsadga muvofiq.

Markaziy Osiyo davlatlari rahbarlarining Maslahat uchrashuvlari formati doirasida doimiy muvofiqlashtiruvchi institutsional mexanizmni shakllantirish zarur. Bu mexanizm tashqi siyosat, xavfsizlik, iqtisodiy hamkorlik va gumanitar aloqalar bo'yicha umumiy kun tartibini ishlab chiqish va monitoring qilish funksiyasini bajarishi lozim.

An'anaviy davlatlararo diplomatiya bilan bir qatorda iqtisodiy, parlamentlararo, ekspertlik va xalq diplomatiyasi mexanizmlarini kengaytirish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, ilmiy-tadqiqot markazlari, tahlil markazlari va universitetlar o'rtasida doimiy muloqot platformalarini yaratish qarorlar qabul qilishda ilmiy asoslangan yondashuvni ta'minlaydi.

Markaziy Osiyo uchun umumiy mintaqaviy manfaatlar xaritasini shakllantirish zarur. Bu xarita transport, suv-energetika, xavfsizlik, raqamli infratuzilma va ekologik barqarorlik sohalarida ustuvor yo'nalishlarni belgilashga xizmat qiladi va diplomatik muzokaralarda yagona pozitsiyani ta'minlaydi.

Xulosa. Davlatlararo muloqotda ishonchni kuchaytirish uchun shaffoflik, oldindan xabardor qilish va qo'shma monitoring mexanizmlarini joriy etish maqsadga muvofiq. Ayniqsa, suv-energetika, chegaraviy xavfsizlik va yirik infratuzilmaviy loyihalar bo'yicha axborot almashuvini institutsionallashtirish muhim ahamiyatga ega.

Markaziy Osiyo diplomatiyasida kadrlar tayyorlash va qayta tayyorlash tizimida gorizontol boshqaruv, muloqot madaniyati va muzokara ko'nikmalariga alohida e'tibor qaratish lozim. Qo'shma ta'lim dasturlari, diplomatik stajirovkalar va tajriba almashuvi mintaqada umumiy diplomatik madaniyatni shakllantiradi.

Afg'oniston masalasida Markaziy Osiyo davlatlari uchun yagona diplomatik yondashuvni ishlab chiqish zarur. Bu xavfsizlik, iqtisodiy integratsiya va gumanitar hamkorlik sohalarida muvofiqlashtirilgan harakatlarni ta'minlab, mintaqaviy barqarorlikka xizmat qiladi.

Suv-energetika va iqlim o'zgarishi masalalarini diplomatik kun tartibining markaziga qo'yish orqali ekologik diplomatiyani mintaqaviy hamkorlik drayveriga aylantirish mumkin. Qo'shma "yashil" loyihalar davlatlararo ishonchni yanada mustahkamlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Dankov, A.G. (2013). Central Asia in 2025: From uncertainty to crisis. Tomsk State University Journal of History, 1(21), 119-123.
2. Djamalov, F., Schrier, A., & Khakimova, M. (2025). Expanding Beyond Conventional Connections: Central Asian Nations Establish New Partnerships. Economic Diplomacy.

3. Manukyan, Z. (2025). The Strategic Role of Central Asia in a Changing World Order: Resources, Logistics, and Competition. YSU Journal of International Affairs, 1(1), 66-99.
4. Manukyan, Z. (2025). The Strategic Role of Central Asia in a Changing World Order: Resources, Logistics, and Competition. YSU Journal of International Affairs, 1(1), 66-99.
5. Sulimanov, A. (n.d.). Central Asia is a Key Vector of Uzbekistan's Foreign Policy. Institute for Strategic and Regional Studies under the President of the Republic of Uzbekistan.
6. Mardonov R. Philosophical problems of modern education //ACADEMICIA: AN INTERNATIONAL MULTIDISCIPLINARY RESEARCH JOURNAL. – 2020. – T. 10. – №. 12. – С. 249-255.
7. Vakhabov, J. (2025). A New Central Asia Emerging: Opportunities and Challenges. The Central Asia-Caucasus Analyst.
8. Sulimanov, A. (n.d.). Central Asia is a Key Vector of Uzbekistan's Foreign Policy. Institute for Strategic and Regional Studies under the President of the Republic of Uzbekistan.
9. Ризаев И. И. Механизмы самоорганизации социальных систем //Экономика и социум. – 2019. – №. 3 (58). – С. 368-371.
10. Djamalov, F., Schrier, A., & Khakimova, M. (2025). Expanding Beyond Conventional Connections: Central Asian Nations Establish New Partnerships. Economic Diplomacy.
11. Vakhabov, J. (2025). A New Central Asia Emerging: Opportunities and Challenges. The Central Asia-Caucasus Analyst.
12. Abdizaitovich G. Educational Problems In The Information Society //Emergent: Journal of Educational Discoveries and Lifelong Learning (EJEDL). – 2025. – Т. 6. – №. 4. – С. 5-5.